

SUKUNAT

Xolbutayeva Shahnoza Jumanazar qizi
O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti
Xotijiy til va adabiyot 3-kafedrası
2-bosqich 2403-guruh tabalasi
E-mail: xolbutayevashahnoza776@gmail.com
Tel: +998-94-776-19-02

Yulduzlarga soʻz soldim, jimjit...
Tunlar qulogʻimga toʻkdi sirini.
Menga oʻxshab yuribdi har kun —
Topolmasdan izlar oʻzini.
Sochlarimga osilib shamol,
Yelkamda mungli armonlarim bor.
Koʻnglim — koʻcha, yuragim — maydon,
Unda kechmish qadamlarim tor.
Yolgʻiz edim, ohangim chiqmas,
Koʻzlarimda qoldi chuqur oʻy.
Qalbim ichra bir qil ham sigʻmas,
Sukunat ham asli mungli kuy.
Qogʻoz-chi? U bunga chidarmi?
Har bir satrim — jonsiz xazondek,
Balki qalbim bundan yigʻlarmi,
Goʻyo shoir mudrab yozgandek.
Yulduzlarga soʻz soldim, jimjit...
Kimdir eshitarmi? Munis ovozim,
Tinglab tursa bir muddat xazon,
U ham tushkunlikda sokin mudrarkan...